

## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

<b>“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi</b>	
<b>№</b>	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</b>
<p style="text-align: center;"><b>Amaliy loyiha mavzusi</b></p> <p>Iqtidorli talabalarni aniqlash, tanlash, rivojlantirish va ishga joylashtirishga mo'ljallangan “Ziyolilar” onlayn platformasini yaratish</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> “Iqtidorli talabalarni aniqlash, tanlash, rivojlantirish va ishga joylashtirishga mo'ljallangan “Ziyolilar” onlayn platformasini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kasbiy faoliyatga tayyor iqtidorli talabalarning barqaror va sifatli bazasini shakllantirishda barcha talablarga javob beradigan platforma yaratiladi.</li> <li>- kadrlar zaxirasiga kiritilgan talabalarning akademik va kasbiy bilim darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha o'quv dasturlar amalga oshiriladi va shu orqali bilim va ko'nikmalari rivojlantiriladi.</li> <li>- talabalarning yetakchilik fazilatlarini va shaxsiy ko'nikmalarini rivojlantirish borasida maxsus amaliyotlar amalga oshiriladi.</li> <li>- ta'lim muassasalari va ish bilan doiralar o'rtasidagi aloqalar rivojlantiriladi va bir qator tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yiladi.</li> <li>- mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirilgan yangi ta'lim dasturlari va kurslarini yaratishda maxsus komissiya yordamida o'quv qo'llanma shakllantiriladi.</li> <li>- ta'lim muassasalari va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik dasturlari yo'lga qo'yiladi.</li> <li>- ish beruvchi tashkilotlarni yuqori malakali yosh mutaxassislar bilan ta'minlovchi yangicha tizim joriy etiladi.</li> <li>- iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yoshlar ishlar agentligida sinovlardan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>

**Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari**

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

<b>“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi</b>		
<b>№</b>	<b>Amaliy loyiha mavzusi</b>	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</b>
	<p>Raqamli transformatsiya asosida harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarini oziq-ovqat bilan ta'minlash elektron platformasini yaratish (O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti misolida)</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Raqamli transformatsiya asosida harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarini oziq-ovqat bilan ta'minlash elektron platformasini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- harbiy ta'lim muassasalarini oziq-ovqat ta'minotini tashkillashtirishda e-nazoratni amalga oshirish imkonini beruvchi elektron platforma yaratiladi;</li> <li>- oziq ovqat ta'minoti bo'yicha shaffoflik, maxsulotlar to'g'risidagi axborotlarni erkin almashinuvi, autsorsing xizmati samaradorligini va o'zaro aloqador strukturalar integratsiyasini ta'minlovchi mexanizm ishlab chiqiladi;</li> <li>- ovqatlanish bloki(qozon ta'minoti)da kursantlar iste'mol qilinadigan taomlar sifatini(kilokalloriya darajasini) aniqlash uchun mini-laboratoriya tashkil etiladi;</li> <li>- iqtisodiy munosabatlarning shaffofligini, korrupsiya darajasini pasaytirish, inson omili ta'sirini kamaytirish, pul mablag'larinin tejash va doimiy virtual nazoratni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keladi;</li> <li>- oliy harbiy ta'lim muassasalarida oziq-ovqat ta'minoti platformasiga o'zaro aloqador bo'lim-xizmatlar integratsiyalanadi;</li> <li>- oziq-ovqat ta'minotini raqamlashtirishning konseptual asosi ishlab chiqiladi va ilmiy kategoriyalari shakllantiriladi..</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti da sinovlardan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1500 barobari</b>		

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*